

“Dorur-Rohat Musulmonlari” Asarida Ideal Jamiyat Tushunchasi

Shirinova Sitora Xayrullo qizi

ToshDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida dunyo tamaddunida jiddiy siyosiy, ijtimoiy, madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu kabi o‘zgarishlar azaldan, o‘z dunyoqarashiga suyangan, ilmning barcha jabhalarida rivojlanishda bo‘lgan, ammo keyinchalik, Sho‘ro mustabid tuzumi ortidan yuksalishning har tomonidan ortda qola boshlagan Turkistonga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Bu davr Turkiston tarixiga jadidchilikning maydonga kelishi va shakllanishi davri bo‘lib kirdi. Bu rivojning boshlanishida esa, jadid ma‘rifatparvarlarining otasi Ismoilbek Gasprali turadi. U Rusiya musulmonlarining Sho‘ro istibdodidan xalos bo‘lishini urush, qo‘zg‘olonlar orqali bostirib bo‘lmasligini anglagan ziyoli shaxs sifatida, ularni diniy ilmlari bilan mutanosib holda yangi dunyoviy bilimlarni egallash, ularga g‘ayrat qilish, dunyo rivojidan ortda qolmaslik uchun Sharq va G‘arb ilmini birday o‘rganish tarafdori bo‘ldi. Ushbu harakatlari amali o‘laroq u gazeta va matbaachilik sohasida bir qator yangi jurnal va gazetalarga asos soldi. Tijorat bilan shug‘ullanib, dunyoning yetakchi davlatlarida kechayotgan yangi o‘zgarishlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ulardan xalqi manfaati uchun andoza oldi. O‘zi asos solgan “Tarjimon” gazetasida ijtimoiy-ma‘rifiy risolalar, maktublar va badiiy asarlaridan parchalar e‘lon qildi. Gazetaning har bir sonini musulmonlar orasida tarqalishi, ularni uyg‘otishga hissa qo‘shishiga harakat qildi. Ushbu maqolada Ismoilbek Gaspralining nasriy asarlaridan biri “Dorur-rohat musulmonlari” asarida ideal inson va ideal jamiyat tushunchalarining mohiyati va ideal jamiyat tushunchasining badiiy adabiyotda aks ettirilish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ideal jamiyat, nasr, badiiy ijod, jadidchilik, ma‘rifatparvarlik harakati.

Badiiy obraz kitobxonga albatta, qandaydir estetik hissiyot uyg‘otishi kerak. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealini tasvirlaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita, salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Shunga ko‘ra, u yoki bu asarni o‘qiganimizda biz ham badiiy obraz faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo zavqlanamiz yoki nafratlanamiz [Boboyev. T, 2002:50]. Badiiy adabiyotda yaratilgan asarlar tom ma‘noda yozuvchining qalbida asrab qo‘ygan idealini ifodalaydi. Chunki badiiy asar yozishga kirishar ekan har qanday yozuvchi o‘z oldiga fikr va maqsad tizginini umumlashtirgan holda bir butun reja asosida ishga kirishadi. Ismoilbek Gaspralining nasriy asarlaridagi qahramonlar ham bevosita davr ijtimoiy holatini his qilgan inson sifatida ko‘zga tashlanadi va turg‘un jamiyatni yangi davrga olib o‘tishni orzu va istaklariga aylantirgan ideal inson sifatida tasvirlanadi. Xususan, uning “Dorur-rohat musulmonlari” asari bosh qahramoni toshkentlik Mulla Abbos afandi ham Gaspralining o‘zi singari “Tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida, umumturkiy musulmonlar davlati yaratilishini orzu qiladi.

Nega aynan Toshkentlik? Gasprali Turkistonga ikki marta sayohat qilgan. Uning birinchi sayohati 1893-yilda bo‘lib, safardan ko‘zlangan asosiy maqsad Turkistonning o‘sha davrdagi ahvolini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish edi. Bundan tashqari, rus amaldorlarini o‘zining yangi usul maktabiga jalb etishni istagan Gasprali Buxoroga qilgan sayohatida amir Abdulahadxon bilan ham bu xususda muzokaralar olib boradi. Ammo amir bergan va‘dasining ustidan chiqmaydi. Ilk safarida Buxoro, Samarqand va Toshkentga safar qilgan Gasprali Samarqadda yangi usul maktabi ochishga muvaffaq bo‘lgan. Ikkinchi sayohati esa, 1908-yilda bo‘lib, bu gal Gasprali har tomonlama o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxs edi. U ikkinchi sayohatida Rusiya musulmonlari jamiyatining faoliyatiga qarshilik fikrlari bilan musulmon jamoalari orasida ham siyosiy bo‘linish yuz berishiga sababchi bo‘ladi. Olimlar fikricha, aynan shu paytdan boshlab Gasprali o‘zining siyosat olamidagi faoliyatiga ilk qadamlarini qo‘yadi. Bu esa, uning gazetalardagi maqolalari, nasriy asarlaridagi qahramonlar tanlovida ham sezilib turadi. Gasprali Mulla

Abbos afandi orqali Turkiston jadidlarini yuzaga chiqarishning dastlabki qadamlarini tashlagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mulla Abbos haqiqiy jadiddir. U Toshkent madrasalaridan birida tahsil ko'radi. 22 yoshga to'lganida otasi vafot etadi va undan qolgan bitmas-tuganmas boylik bilan dunyoning islom dunyosida muqaddas hisoblangan joylarini ziyorat qilishni xohlaydi. U shu yoshigacha faqat diniy ilmlarni o'rgangan va endilikda sayohatga chiqadigan mamlakatlarida ro'y beradigan voqealar unga yangi dunyo eshiklarini ochadi. Boshidan kechirgan har bir voqealari unga o'zining tor dunyosidan chiqish, boshqa olam sir-sinoatlarini anglashga yordam beradi. O'qigan kitoblari orqali o'zi ziyorat qilishni istagan ziyoratgohlarning Ovrupoda joylashganligini bilib, "aziz turkiy avliyolarning muqaddas qadamjolariga" sayohatni Ovrupodan boshlashga ahd qiladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, Mulla Abbos madrasada ta'lim olgani va har qancha diniy bilimlarni egallaganiga qaramay, o'z davri insonlaridan "yangilikni qabul qila oluvchi" shaxs ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Uning ilk sarguzashtlarini Ismoilbek Gasprali o'zining "Farangiston maktublari" asariga kiritadi. "Dorur-rohat musulmonlari" asarida esa, qahramonimiz Fransiya sayohatidan qaytib, uzoq Andaluz ya'ni Ispaniya mamlakatiga sayohat qilishni orzu qiladi. Buning sababi Mulla Abbos afandi izlab yurgan qadamjolari aynan shu mamlakatda joylashganligida edi.

Gasprali asarni kunlik voqealar bilangina bog'lamaydi. Tarixiy faktlar orqali sayohat qilinayotgan mamlakatlar haqida to'liq geografik ma'lumotlar ham berib o'tadi. Asar boshida Andaluz fathi, Jabalut-Toriq (Gibraltar) bo'g'oziga berilgan nomning tarixiy asoslar yordamidagi qisqa bayonini berib o'tadi. Bu ma'lumotlar orqali esa, o'quvchini sekin-astalik bilan "Dorur-rohat musulmonlari" ya'ni "Farog'at o'lkasi"ning vujudga kelishi bilan tanishtiradi. Ammo asarda biz asarda birgina Mulla Abbos afandidan emas, shayx Jalol, Faridabonularning hikoyalarini ham tinglaymiz.

Grenadaning Al-Hamro qasrini tomosha qilish asnosida, u yerdagi "Qizlar ko'shki" ni aylanib yurgan Mulla Abbosning o'n ikki qiz va shayx Jalolni uchratib qolishi bilan asarning asosiy voqealar bayoni boshlab beriladi. Shayx Jalol "Farog'at o'lkasi" haqidagi sirning, unga olib boriladigan yo'lning fosh bo'lishidan cho'chib, Mulla Abbos afandini ham o'zlari bilan yashirin yo'llar orqali ko'zini bog'lagan holda mamlakatga olib ketadi. Yo'l-yo'lakay shayx Jalol bilan bo'lgan suhbatida ona yurti Turkiston insonlarining naqadar g'aflat botqog'iga botganliklari, madrasa ulamolarining dinni qo'l qilib dunyodan butunlar qo'l uzganliklari yetmaganday, uning butun xalq farzandlarining hayotidan ham sug'urib olganliklarini o'ylab ham qayg'uradi, ham uyaladi. Qahramonimiz bu yer osti mamlakatining tabiati, rivojlanishi, ilm-ma'rifatning, ishlab chiqarishning hali yer ustida paydo bo'lmagan turfa yangiliklaridan xabardor bo'lar ekan, o'lka insonlarining zakovatidan hayratga tushadi. Insonlar va davlat orasidagi haqiqat, sud tizimining adolatli faoliyatiga tahsinlar aytadi. Ko'chada hamma yuz o'g'irgan o'g'ri insonni uchratganida xalqning uni tarbiya etmoq uchun qilayotgan munosabatdan hayratini yashirolmaydi.

➤ *Naqadar ayanchli, naqadar daxshatli g'aflat bu! Yohu! Ey, o'g'lim, ko'zi boylangan kishi yura oladimi? Tuproqni bilmay ekin ekasiz, suvni bilmay ichasiz, dunyoni bilmay umr va kun kechirasiz... Voh, qanday sho'r peshonalik, qanday g'aflat! Janobi Haq marhamat qil. Bu ahvolingizdan g'oyatda g'amgin bo'ldim. Oddiy xalq, mayli, bilmasin. Ammo arkoni davlat, kazo-kazo to'razodalar ham meros ilmining o'z o'rni borligini, masalan, meros ilmi bilan askar ko'chirmoq, dori-darmon tayyorlamoq mumkin emasligini bilmaydilar mi?! Mamlakatni boshqarish uchun ham boshqa qator fanlar va kamolot kerak. Ilm bor, din uchun, ilm bor, kun uchun, ilm bor, ruh uchun, ilm bor badan uchun... [O'sha kitob, 2022:167]*

Farog'at o'lkasining imom afandisidan yuqoridagi alamli fikrlarni eshitgan Mulla Abbos afandi yanada teranroq anglaydiki, bu dunyoga kelgan insonning maqsadi faqat dinni o'rganib, unga bog'lanib, dunyoni unutib yuborish emas ekan. Negaki, dinni bizga mukammal qilib bergan ulug' zot, dunyoning turfa ilm-u ajoyibotlarini ham bejizga yaratmagan axir. U bu yurtda eng katta sarmoya ilmga tikilganligi uchun ham katta bir botqoqzorni ko'kalamzor yurtga aylantira olgakliklarini tushunib yetadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki, yuqoridagi qisqa bayon orqali "Dorur-rohat musulmonlari" asari haqida to'la ma'noda fikr bildirish albatta, mushkul ish. Ismoilbek Gaspralining bu asari kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydi. XX asrda Turkiston o'lkasidagi ilmsizlik, ma'rifatsizlik, yurt boshida turgan insonlarning o'z xalqi maqomini o'ylamay qilgan adolatsizliklari keyingi avlodning hayotiga naqadar ayanchli ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatib beradi. U o'zi qurishni istagan jamiyatni, undagi insonlarni bizga Farog'at o'lkasi misolida yetkazishga harakat qiladi. Asardagi har bir satrda xalq manfaati ustun ko'rilgan, xalq ta'limi oliy darajaga olib chiqilgan o'lkada yuksalish hamisha o'zining eng oliy cho'qqisiga chiqishi ta'kidi sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002
2. Исmoil Гаспринский ва Туркистон. – Тошкент: Шарқ, 2005.
3. Исmoilбек Гаспрали. Хаёт ва мамот масаласи. Тошкент: Маънавият, 2006.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Ismoil Gasprali. Dorur-rohat musulmonlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2022

